

## Qonunga ko'ra:

\*\*\*\*\*

**Rasmiy statistika** ushbu Qonunning qoidalariga muvofiq davlat statistika organlari va rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan tayyorlanadigan hamda tarqatiladigan statistika ma'lumotlaridan iboratdir.

\*\*\*\*\*

### **Rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari bu:**

- ✓ mustaqillik;
- ✓ tushunarlilik va shaffoflik;
- ✓ aniqlik va ishonchlilik;
- ✓ beg'arazlik va xolislik;
- ✓ statistik maxfiylik;
- ✓ dolzarblilik.

\*\*\*\*\*

**O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi** rasmiy statistika sohasida vakolatli davlat organi hisoblanadi.

\*\*\*\*\*

**Davlat statistika organlari** rasmiy statistikaning asosiy tayyorlovchilaridir.

Statistika dasturlariga rasmiy statistikaning tayyorlovchilari sifatida kiritilgan davlat boshqaruvi organlari rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilaridir.

\*\*\*\*\*

Davlat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari **davlat statistika organlarining** ushbu Qonunga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

\*\*\*\*\*

Qoraqalpog'iston Respublikasining, viloyatlarning va Toshkent shahrining statistika boshqarmalari, tumanlarning (shaharlarning) statistika bo'limlari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil bo'lib, bevosita **vakolatli davlat organiga** bo'ysunadi.

\*\*\*\*\*

### **Davlat statistika organlari:**

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, shuningdek boshqa tashkilotlardan statistika dasturlarini bajarish uchun zarur bo'lgan axborotni so'rash hamda olishga;

statistika ma'lumotlarini taqdim etish bilan bog'liq qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish haqida ko'rsatmalar berish va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritishga;

statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy jazo choralarini qo'llashga va boshqa huquqlarga ega.

\*\*\*\*\*

Rasmiy statistikaning tayyorlovchilarga individual va boshqa ma'lumotlarni statistika maqsadlarida taqdim etuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs **respondentdir**.

\*\*\*\*\*

### **Respondentlar:**

rasmiy statistikaning tayyorlovchilarga ishonchli va to'liq ma'lumotlarni belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etishi;

agar taqdim etilgan ma'lumotlar to'g'ri, dolzarb va to'liq bo'lmasa, rasmiy statistikaning tayyorlovchilari tomonidan belgilangan muddatlarda ma'lumotlarni tuzatishi, yangilashi, to'ldirishi hamda ularga taqdim etishi shart.

\*\*\*\*\*

Statistika ma'lumotlarini yig'ish usullari **rasmiy statistikaning tayyorlovchilari** tomonidan belgilanadi.

\*\*\*\*\*

Demografik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ayrim yo'nalishlari bo'yicha o'tkaziladigan ro'yxatga olishlarda ishtirok etuvchi **respondentlar** ro'yxatga olish varag'ining shakliga binoan ishonchli individual ma'lumotlarni taqdim etishiga haqli hamda ro'yxatga olishlarni o'tkazish jarayonlariga monelik qilmasligi shart.

\*\*\*\*\*

**Ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar** va boshqa yuridik shaxslar o'z tasarrufidagi mavjud ma'lumotlarni taqdim etish chog'ida maxfiylik to'g'risidagi qoidalarni vaj qilib ko'rsatishi mumkin emas.

\*\*\*\*\*

**Rasmiy statistikaning tayyorlovchilari** tasarrufidagi mavjud individual ma'lumotlardan faqat statistika maqsadlarida, jamlanma statistika ma'lumotlarini shakllantirish uchun foydalaniladi.

\*\*\*\*\*

Rasmiy statistikaning tayyorlash uchun yig'iladigan, ishlov beriladigan va saqlanadigan statistika ma'lumotlari, agar ular jismoniy yoki yuridik shaxslarni bevosita yoki bilvosita identifikatsiyalash imkonini bersa hamda ularga taalluqli individual ma'lumotlarni oshkor qilsa, **maxfiy** hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining  
Qonuni

**RASMIY STATISTIKA  
TO'G'RISIDA**

O'RQ-707-son, 11.08.2021yil



**O'ZBEKISTON UCHUN  
HAMMAMIZ  
MAS'ULMIZ!**

Guliston - 2023



**HURMATLI  
TADBIRKORLAR!**

Statistika sohasiga oid  
masalalar bo'yicha  
quyidagi "Ishonch telefon"larga  
murojaat qilishingiz  
mumkinligini bildiramiz:

**STATISTIKA AGENTLIGI:**

11-51

**VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI:**

(67) 225-19-70

**O'ZBEKISTON UCHUN  
HAMMAMIZ  
MAS'ULMIZ!**

Guliston - 2023

O'zbekiston Respublikasining  
Qonuni

**RASMIY STATISTIKA  
TO'G'RISIDA**

O'RQ-707-son, 11.08.2021yil

